

Maslahat kengashlari uchun "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish" mavzusida o'quv-seminari bo'lib o'tdi

// 05.08.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maslahat-kengashlari-uchun-xotin-qizlar-va-erkaklar-teng-huq>



Bugun poytaxtimizda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida Maslahat kengashlari uchun "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish" mavzusida o'quv-seminari bo'lib o'tdi.



Seminar O'zbekistonning gender salohiyatini mustahkamlashga texnik yordam ko'rsatish doirasida tashkil etilgan bo'lib, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha maslahat kengashlari faoliyatida gender integratsiyasiga bag'ishlandi.

Mazkur tadbirda vazirlik va idoralarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tashkil etilgan Maslahat-kengashi organlari a'zolari, xotin-qizlar masalalari bo'yicha mas'ullar qatnashdi.



"O'zkimyosanoat" AJ vakillari ham ushbu tadbirda ishtirok etishdi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati